

O'zbekiston Prezidenti BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissarini qabul qildi




O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 10-may kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Zayd Raad al-Husaynni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonni qutlar ekan, O'zbekiston va BMT, ushbu nufuzli universal xalqaro tashkilot institutlari, shu jumladan, BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi o'rtaida amaliy va ochiq muloqotni yanada rivojlanтирish va mustahkamlash muhimligini alohida ta'kidladi.

Inson huquqlarini har tomonlama himoya qilish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli tarkibiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi ekani qayd etildi.

O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha samarali qonunchilik tizimi yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan bir qatorda 16 kodeks va 400 dan ortiq qonunchilik hujjati qabul qilingan. Parlament Ombudsmani va Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz faoliyat ko'rsatmoqda, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha sudga daxli bo'limgan yangi mexanizm – Biznes-Ombudsman tashkil etildi.



Yaqinda tasdiqlangan va mohiyatiga ko'ra BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishning "yo'l xaritasi"ga aylangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishni takomillashtirishga doir aniq chora-tadbirlar dasturi belgilangan.

Bundan tashqari, mamlakatimiz inson huquqlari bo'yicha 70 dan ziyod xalqaro hujjatga, jumladan, BMTning o'nta shartnomasiga qo'shilgan. Bugungi kunda ushbu hujjatlarni milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish va amaliyatga joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Uchrashuvda o'zaro hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha fikr almashildi.

Zayd Raad al-Husayn Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga samimiyl qabul, O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish masalalariga yuksak e'tibor qaratilayotgani va bu borada amaliy choralar ko'rilibayotgani uchun minnatdorlik bildirdi. BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi O'zbekiston bilan uzoq muddatli va tizimli hamkorlikni rivojlantirishga tayyor ekanini ta'kidladi.

[O'zA](#)